

IZZAT SULTON NAZARIYOTCHI SIFATIDA

Xatambekova Xamrobi

O'zbek Adabiy Tanqidi Tarixi Fanidan Maqolasi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek adabiyoti va nazariyotida muhim o'rin tutgan Izzat Sultonning nazariy faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada Sultonning adabiyotshunoslik va nazariyotga qo'shgan hissalarini, uning ijodiy qarashlari va nazariy yondashuvlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, muallif Izzat Sultonning asarlarida adabiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish usullari va zamonaviy adabiyotshunoslikda uning o'rni haqida xulosalar beradi. Maqola nazariyotchi sifatida Sultonning ilmiy merosi va uning o'zbek adabiyotini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Izzat Sulton, Nazariyotchi, Adabiyotshunoslik, Adabiy nazariya, Ilmiy meros, Nazariy yondashuv, Adabiyot tahlili, Zamonaviy adabiyotshunoslik, Tanqidiy qarash, Ilmiy faoliyat.

Annotation: This article is devoted to the study of the theoretical activity of Izzat Sultan, who played an important role in Uzbek literature and theory. The article analyzes Sultan's contributions to literary studies and theory, his creative views and theoretical approaches.

The author also draws conclusions about the methods of in-depth analysis of literary processes in Izzat Sultan's works and his place in modern literary studies. The article aims to highlight Sultan's scientific heritage as a theorist and his importance in the development of Uzbek literature.

Keywords: Izzat Sultan, Theorist, Literary studies, Literary theory, Scientific heritage, Theoretical approach, Literary analysis, Modern literary studies, Critical view, Scientific activity.

Аннотация: Статья посвящена изучению теоретической деятельности Иззата Султана, сыгравшего важную роль в развитии узбекской литературы и теории. В статье анализируется вклад Султана в литературоведение и теорию литературы, его творческие взгляды и теоретические подходы.

Автор также делает выводы о методах глубокого анализа литературных процессов в творчестве Иззата Султана и его месте в современном литературоведении. Цель статьи – осветить научное наследие Султана как теоретика и его значение в развитии узбекской литературы.

Ключевые слова: Иззат Султан, Теоретик, Литературоведение, Теория литературы, Научное наследие, Теоретический подход, Литературный анализ, Современное литературоведение, Критический взгляд, Научная деятельность.

KIRISH

Izzat Sulton (1910–2001) — O‘zbekiston davlat va jamoat arbobi, o‘zbek olimi, akademik, adabiyotshunos, dramaturg, tanqidchi, 2 ta orden va Shuhrat medali sohibi, Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat Mukofoti sovrindori. Hayot yo‘li Izzat Sulton 1910-yili O‘sh shahrida chevar (portnoy) oilasida dunyoga kelgan, bolalar uyida katta bo‘lgan. Uning bobosi Sartoy Sulton sariqdan kelgani yoki rus tilida bemalol „chug‘urlashgan“i uchunmi, hamshaharlari „Sulton sariq“ deb atashgan. Ana shu „Sulton sariq“ asli turkistonlik bo‘lib, chorvadorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Turkiston XIX asrning 60-yillarida istilo etila boshlaganida mustamlakachi zobitlaridan biri unga rus qo‘shinini go‘sht bilan ta‘minlab turish vazifasini topshirgan.

Shu tarzda Sartoy Sulton rus qo‘shinlari Xitoy chegaralariga etib borguniga qadar o‘n ikki yil davomida ularni go‘sht bilan ta‘minlab borgan. Nihoyat, O‘sh shahrida muqim yashab, O‘sh hokimiga mirzalik va tilmochlik qilgan. Shu yerda uning farzandi Otaxondan Izzatulla ismli bo‘lajak o‘zbek olimi va dramaturgi dunyoga kelgan. Izzatulladan avval Rahmatulla, Habibulla va Fayzulla ismli uch akasi va Saodat ismli singlisi tug‘ilgan.

Sartoy Sulton o‘zbek xalqining kelajagi Rossiya bilan bog‘liq bo‘lajagini sezib, to‘ng‘ich nevarasini hatto o‘g‘li Otaxonning noroziligiga qaramay, rus-tuzem maktabiga o‘qishga bergan. Rahmatulla shu maktabni bitirgach, Toshkentga kelib, o‘zbek bilim

yurtida o‘qishni davom ettirgan. U Cho‘lponning yaqin do‘sti bo‘lib, uning 24 yoshida dunyoni fojiali ravishda tark etishi zabardast shoirni larzaga keltirgan va u do‘stiga bag‘ishlab ko‘z yoshlarini to‘ka-to‘ka marsiya yozgan. Fayzulla ma’lum vaqt Andijonda muallimlik qilib, hatto dramaturg Komil Yashinga ilk adabiy saboq berib, 1937-yil tegirmonidan omon chiqmagan.

Etikdo‘zga shogird tushib, turmush tashvishlari bilan yashagan Habibulla esa sil kasalligiga yo‘liqib, onasi bilan singlisi Saodatni dog‘da qoldirib ketgan. Otaxon aka, parishonxotirlik orqasida bo‘lsa kerak, o‘g‘li Izzatullaning tug‘ilgan sanasini 1911-yil, deb yozgan ekan. „Men, — deb hikoya qilgan edi Izzat Sulton shogirdi — filologiya fanlari doktori No‘‘mon Rahimjonovga, — 1911-yili 29-iyunda tug‘ilganman. Otamning kundalik daftariga shunday yozib qo‘yilgan ekan. Ocharchilik yillari sal-pal esimda bor. O‘shanda odamlar ko‘kat eb, shishib ketishgani, o‘lganlarini elas-elas eslayman. Bizning oilamizga ham ana shunday fojealar ko‘lankasi tushdi. 1920-yili dadam o‘ldi.

Undan sal oldin bobom olamdan o‘tdi. Onamiz bir etak bolalar bilan yakka qoldi... Otam olamdan o‘tganda Bahrixon 26-27 yoshlarda edi 1965-yili vafot etdi. Otamdan keyin 45 yil yashadi. Hammamizni oyoqqa qo‘ydi...“ Izzat Sulton hayotning shunday mashaqqatli so‘qmoqlaridan o‘tish jarayonida shaxs sifatida shakllana boshladi. 1924-yilda „razvyorstka“ degan so‘z paydo bo‘lgan. Bu „razvyorstka“ga ko‘ra, har bir viloyat falonchadan bolalarni yirik shaharlarga o‘qishga yuborishi lozim edi. Ana shu „razvyorstka“ sabab bo‘lib, Izzatulla dastlab Qo‘qonga, so‘ngra Toshkentga o‘qishga yuborildi.

U 1927-yilga qadar Beshyog‘ochdagi „Narimonov“ (Namuna) o‘zbek bilim yurtida o‘qidi. Shu yili bilim yurti bilan O‘qchi ko‘chasidagi ta’lim-tarbiya texnikumning bitiruvchi guruhlari qo‘shib yuborildi. U mazkur o‘quv yurtini tugatganidan so‘ng 1939-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutiga ishga kelguniga qadar yana bir qancha joylarda ham ishlab, ham o‘qidi. U ikkinchi jahon urushi boshlangan davrdan 1948-yilga qadar O‘zbekfilm kinostudiyasida turli lavozimlarida xizmat qildi.

Faoliyati Izzat Otaxonovich Sultonovning faol ijtimoiy ishlari boshlandi:

1937–1942-yillar — O‘zbekiston fanlar Akademiyasi qoshidagi Til va adabiyot oliygohi direktor o‘rinbosari;

1942–1943-yillar — O‘zbekiston SSR radioeshittirish davlat qo‘mitasi raisi o‘rinbosari;

1943–1945-yillar — O‘zbekfilm kinostudiyasi direktori;

1945–1948-yillar — O‘zbekiston SSR vazirlar kengashi raisining madaniyat masalalari bo‘yicha o‘rinbosari;

1948–1950-yillarda — Til va adabiyot oliygohining direktori;

1955-yildan — adabiyot nazariyasi sektori mudiri;

1950–1953-yillar — Moskva davlat universiteti (MGU imeni M.Lomonosova) SSSR xalqlari adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi;

1956–1963-yillar — O‘zbekiston SSR yozuvchilar uyushmasi rayosatining kotibi (o‘sha vaqtda yozuvchilar uyushmasi raisi Sharof Rashidov bo‘lgan);

1946-yil — filologiya fanlari nomzodi;

1955-yil — filologiya fanlari doktori;

1964-yil — O‘zbekiston SSR xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi;

1966-yil — O‘zbekiston fanlar Akademiyasi muxbir a‘zosi;

1995-yil — O‘zbekiston fanlar Akademiyasi haqiqiy a‘zosi, akademik;

Ixtisoslashgan Ilmiy Kengash raisi bo‘lgan. Izzat Sulton ko‘plab asarlar muallifi.

Taqdir Izzat Sultonga turmushning qaysi ko‘chalarida yurish va yashashni ravo ko‘rgan bo‘lmasin, uning ko‘nglida adabiyotga, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyga bo‘lgan mehr doimo yashadi... Buni qarangki, bo‘ljak adabiyotshunos olimning „Yosh leninchi“ gazetasining 1931-yil 16-sentabr sonida bosilgan ilk maqolasi o‘zbek tili va adabiyotining shu buyuk asoschisiga bag‘ishlangan va „Mir Alisher Navoiy“ deb atalgan edi.

Shundan keyin uning „Farhod va Shirin“ning yangicha qo‘yilishi“, „Adabiy merosimizni o‘rganaylik“ (1937-yil), „[[Rustaveli Shota|Rustaveli va Navoiy“, „Mir Alisher Navoiy“ (1938-yil), „Makorim ul–axloq“ haqida“, „Navoiyning tadqiqotchilari“ (1941-yil), „Makorim ul–axloq“ va uning muallifi" (1945-yil), „Navoiyga zamondosh shoirlar to‘g‘risida“ (1948-yil) singari qator maqolalari e‘lon qilindi. Uning 1942-yili yozgan „Buyuk Alisher“ kinossenariysi esa Uyg‘un va V.Shklovskiy bilan hamkorlikda yozilgan „Alisher Navoiy“ kinossenariysi hamda Uyg‘un bilan hammualliflikda yozilgan

shu nomdagi mashhur dramaning maydonga kelishida poydevor bo‘lib xizmat qildi. Komil Yormatov ekranlashtirgan film ham, Mannon Uyg‘un sahnalashtirgan spektakl ham o‘zbek kino va teatr san’atlarining shoh asarlaridan biri bo‘lib qoldi. Olim 1946-yilda "Alisher Navoiyning „Mezon ul-avzon“ asari va uning tanqidiy matni" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Shu tarzda Alisher Navoiy mavzusi Izzat Sulton ilmiy va ijodiy faoliyatining asosiy qon tomiri bo‘lib qoldi. 1957-yili Izzat Sulton Chilonzor tumanida joylashgan adabiyotchilar yashaydigan ko‘p qavatli uyga ko‘chib o‘tdi.

U bilan birga bu uyda Said Ahmad, Odil Yoqubov, Rahmat Majidiy, Samig Abduqaxxor, Po‘lat Mo‘min, Aleksandr Udalov, Anna Almatinskaya, Shuhrat, Vaxob Ro‘zimatov, Zohid Obidov, Tolib Yo‘ldosh, Aziz Abdurazzoq, V.Ivanov, Vladimir Lipkin, Ozod Sharafiddinov, Rahmon Bahrom, Yusuf Bo‘lat, J.Abdullaxonov, Mavlon Ikrom va boshqa adabiyotchilar yashashdi. Izzat Sulton Toshkentdagi Chig‘atoy qabristoniga 2001-yili dafn etilgan.

Shuningdek, kino va teatr sohasida ham faol bo‘lib, sahna asarlari va ssenariylar yaratgan. UzPedia Uning dramaturgik asarlarida ijtimoiy va ma’naviy masalalar, inson ruhiyati, zamon va shaxs munosabatlari aks ettirilgan. Merosi va ahamiyati Izzat Sulton ilm-fan va adabiyot nazariyasi sohasida o‘ta muhim nazariyotchi bo‘lgan, va uning ishlari bugungi adabiyotshunoslar uchun katta manba hisoblanadi.

Uning darsliklari va nazariy asarlari o‘zbek adabiyot nazariyasining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, dramaturg va ssenariychi sifatida uning ijodi o‘zbek dramatik san’ati rivojiga ta’sir ko‘rsatgan. Uning ilmiy va nazariy maktabi hozirgi adabiyotshunos olimlar va tadqiqotchilar tomonidan davom ettirilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilganda, Izzat Sulton nazariyotchi sifatida o‘z davrining ilmiy va badiiy ehtiyojlariga javob bergan, adabiyotshunoslikda mustahkam nazariy meros qoldirgan va zamonaviy adabiyotshunoslikda davomiy iz qoldiruvchi shaxsdir. Izzat Sulton o‘zbek adabiyotshunosligi va nazariyotida muhim o‘rin tutgan olim va nazariyotchi sifatida tarixda iz qoldirgan. Uning ilmiy faoliyati adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid va dramaturgiya sohalarini qamrab olgan. Sulton adabiyotiy jarayonlarni tahlil qilishda

zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqib, janrlar, badiiy shakllar, syujet va qahramonlarning ruhiy olami kabi masalalarni chuqur o'rganishga katta hissa qo'shgan.

Shuningdek, u nafaqat nazariyotchi, balki dramaturg va ssenariychi sifatida ham ijod qilgan, sahna va kino asarlarida ijtimoiy, ma'naviy va inson ruhiyati masalalarini yoritgan. Izzat Sultonning ilmiy maktabi va darsliklari bugungi adabiyotshunoslar va tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib, uning nazariy qarashlari o'zbek adabiyot nazariyasining rivojlanishiga asos bo'ldi.

Izzat Sulton o'zbek adabiyotshunosligi va adabiyot nazariyasi sohasida chuqur iz qoldirgan olim va nazariyotchi sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. Uning ilmiy faoliyati adabiyotning nazariy, badiiy va pedagogik jihatlarini qamrab olgan bo'lib, u zamonaviy adabiyotshunoslikning shakllanishida katta hissa qo'shgan. Sulton adabiyot nazariyasini jamiyat bilan chambarchas bog'liq deb hisoblagan, adabiyotning vazifasi nafaqat san'at, balki hayot haqiqatini aks ettirish ekanligini ilgari surgan.

U adabiyotshunoslikda janrlar, badiiy shakllar, syujet, konflikt va qahramonlarning ruhiy olamini chuqur tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqqan. Izzat Sultonning ilmiy qarashlarida adabiyotiy asarlarni tahlil qilishda nafaqat texnik, balki psixologik va estetik jihatlar ham muhim hisoblangan. Shu orqali u adabiy jarayonlarni ilmiy va nazariy asosda yoritib, adabiyotshunoslikning yangi bosqichini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sulton, I. "Adabiyot nazariyasi". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
2. Sulton, I. "Ijodiy izlanishlar". Toshkent: Yozuvchi, 1981.
3. Sulton, I. "San'at – hayot ko'zgusi". Toshkent: Yozuvchi, 1984.
4. Sulton, I. "Adabiy-tanqidiy maqolalar". Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1987.
5. Sulton, I. "Ijod va mahorat". Toshkent: Yozuvchi, 1990.
6. Yo'ldoshev, Q. "O'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyoti". Toshkent: Fan, 1999.
7. Oxunjonov, A. "Adabiyot nazariyasining asoslari". Toshkent: O'qituvchi, 1995.
8. Jo'rayev, N. "O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi". Toshkent: Fan, 2001.
9. Normatov, U. "Adabiy tanqid va ijodkor mas'uliyati". Toshkent: O'zbekiston, 2002.

10. Qo'chqorov, A. "Badiiy tafakkur va tahlil". Toshkent: Akademiya, 2004.
11. Rasulov, R. "Adabiy jarayon va nazariy qarashlar". Toshkent: Fan, 2010.
12. Karimov, B. "O'zbek adabiy tanqidchiligi: masalalar va talqinlar". Toshkent: Mumtoz so'z, 2015.
13. Eshboyev, T. "Adabiyotshunoslikka kirish". Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
14. To'xliyev, B. "XX asr o'zbek adabiyoti va adabiy tanqid". Toshkent: Fan, 2008.
15. Qodirova, S. "Izzat Sultonning adabiy-nazariy qarashlari". Ilmiy maqolalar to'plami, Toshkent davlat universiteti nashriyoti, 2019.